

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova	
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov	
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov	
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova	
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanonov	
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов	
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva	
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova	
Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov	
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva	
Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova	
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova	
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov	
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K:37.013:373.3

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI**ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****THE EFFECTIVENESS OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS****G'ofurova Mahfuza Abbosovna** 

Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi yoritiladi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning ijodiy fikrlash va reflektiv faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalardan tizimli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning funksional savodxonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar — SBITT, reflektiv o'qitish va portfolio usullarining nazariy-metodik asoslari, xorijiy tajribalardagi tatbiqlari hamda ularning samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil etilgan

Аннотация

В статье рассматривается эффективность использования современных педагогических технологий в процессе профессионального развития будущих учителей начальных классов. Педагогические технологии способствуют индивидуализации учебного процесса, развитию творческого мышления и рефлексивной деятельности студентов, а также формированию их профессиональных компетенций. Результаты исследования показывают, что системное применение современных технологий является важным фактором повышения функциональной грамотности будущих педагогов. В статье глубоко проанализированы теоретико-методические основы современных педагогических технологий, способствующих профессиональному развитию будущих учителей начальных классов, — SBITT, рефлексивного обучения и портфолио-технологии. Рассматриваются их применение в зарубежном опыте, а также показатели эффективности данных подходов.

Abstract

This article explores the effectiveness of modern pedagogical technologies in the professional development of prospective primary school teachers. Pedagogical technologies contribute to the individualization of the learning process, the development of students' creative thinking and reflective activities, as well as the formation of their professional competencies. The findings indicate that the systematic use of modern technologies is a crucial factor in enhancing the functional literacy of future teachers. The article provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations of modern pedagogical technologies that contribute to the professional development of prospective primary school teachers — SBITT, reflective teaching, and the portfolio method. Their application in international practice, as well as the indicators of their effectiveness, are thoroughly examined.

Kalit so'zlar: SBITT, reflektiv o'qitish, portfolio, kasbiy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, samaradorlik, matematik savodxonlik, didaktik vositalar, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchilar, pedagogik yondashuv fikrlash, mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, ko'nikmalar, ta'lim, boshlang'ich, metodika, innovatsiya.

Ключевые слова: SBITT, рефлексивное обучение, портфолио, профессиональное развитие, педагогические технологии, эффективность, математическая грамотность, дидактические средства, начальное образование, будущие учителя, педагогический подход. мышление, логическое мышление, рассуждение, навыки, образование, элементарное, методология, инновации.

Key words: SBITT, reflective teaching, portfolio, professional development, pedagogical technologies, effectiveness., functional literacy, didactic tools, primary education, future teachers, pedagogical approach, students, determining ways to solve various problems and assignments.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida funksional savodxonlik masalasi o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish, mustaqil fikrlash, muloqot va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bevosita o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirishda didaktik vositalarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zero, XXI asrda ta'lim sifati nafaqat bilimlar hajmi bilan, balki o'quvchining olgan bilimni amaliyotda qo'llay olish, muammolarni mustaqil hal etish, muloqotga kirishish, axborotni tahlil qilish va raqamli muhitda ishlay olish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar o'qituvchilardan nafaqat puxta nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishni talab etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi ularning pedagogik faoliyatga tayyorligi, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish qobiliyati va funksional savodxonlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda SBITT, reflektiv o'qitish va portfolio texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida samarali metod sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonida talabning o'z-o'zini anglashini, ijodiy yondashuvini, reflektiv tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, o'quv jarayonini individuallashtirish va shaxsiylashtirishga imkon beradi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur texnologiyalar o'qituvchilar tayyorlashda keng qo'llanilib, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvchan bo'lishlariga xizmat qilmoqda. Shu bois, ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy-metodik asoslari va samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalqaro tadqiqotlarda funksional savodxonlik nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni turli kontekstlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi[5]. Finn (2015) ta'lim jarayonida didaktik vositalardan to'g'ri foydalanish o'quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni shakllantirishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi olimlar bo'lajak o'qituvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun reflektiv yondashuv va innovatsion metodlarni qo'llash zarurligini asoslab berishadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, funksional savodxonlik tushunchasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida markaziy o'rin egallaydi. Xalqaro tadqiqotlarda funksional savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida ta'riflanadi[6].

Pedagogik texnologiyalar orasida SBITT (sistemali-blokli innovatsion ta'lim texnologiyasi) o'quv jarayonini modullashtirish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich o'zlashtirish va reflektiv nazoratni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, reflektiv o'qitish konsepsiyasi o'qituvchining o'z faoliyati natijalarini baholash, pedagogik qarorlarni qayta ko'rib chiqish va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi [7]

Portfolio texnologiyasi esa o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutadi. U talabalarning shaxsiy yutuqlarini tizimlashtirish, mustaqil o'rganish va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, portfoliadan muntazam foydalanish talabalarda reflektiv kompetensiya va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi [5].

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda taqqoslovchi tahlil, nazariy umumlashtirish va tajribaviy kuzatish usullaridan foydalanildi. Xorijiy tajribalarni o'rganishda Finlandiya, Singapur va Avstraliya ta'lim tizimlaridagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratildi [6]. Shuningdek, tadqiqotda empirik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali texnologiyalarning

PEDAGOGIKA

samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ta'siri baholandi.

Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish funksional savodxonlik deganda "Jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy ehtiyojlarning o'sishi, to'liq huquqli bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar darajasi va iqtisodiyotda insonning samarali ishtiroki o'z jamiyati va mamlakatining siyosiy, fuqarolik, ijtimoiy va madaniy hayotini targ'ib qilish kabi sifatlarining ortib borishi tushiniladi.

Funksional savodxonlik insonning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llashi mumkinligini ko'rsatadi, u individual tayyorgarlikning zarur darajasini belgilaydi. Ular kompetentsiyani hayotiy vaziyatlarda nostandart harakat qilish qobiliyati sifatida emas, balki xalqaro amaliyotda funksional savodxonlikni rivojlantirish va baholash uchun vazifalarning maxsus shakllari qo'llaniladi. Tuzilishi va bunday vazifalarning mazmuni an'anaviy o'quv va kognitiv vazifalardan sezilarli darajada farq qiladi. O'qituvchilarning ushbu asoslarni tushunishlari, farqlay olishlari va funksional savodxonlikning har bir

turini rivojlantirish bo'yicha vazifalar, bu o'zgarishlarga tayyor o'qituvchiga ta'limning yangi sifatiga erishish imkonini beradi. Funksional savodxonlik talabaning olingan bilimlardan hayotiy vaziyatlarda ko'nikma va malakalarni qanday qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi. Funksional savodxonlik talabaning shaxsning hayotiy faoliyatini amalga oshirishga tayyorligining minimal talab qilinadigan darajasini belgilaydi [3].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Umumiy ta'lim darajasida funksional savodxonlik meta-mavzu ta'lim natijasi sifatida qaraladi hamda olingan bilimlardan foydalanishni nazarda tutadi shu bilan birgalikda ta'lim va muloqotning dolzarb muammolarini hal qilish, kundalik muammolarni hal qilishga yordam beradi, Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir bir talay yondaShuvlar mavjud. *Usul* deganda dars mashg'ulotlarini tashkil qilishning tizimli metodlari va o'qitishning shakllari tuShuniladi. Shu jihatdan xorijlik pedagogik olimlar boshlang'ich ta'limni tashkil etishga doir o'ziga xos yondaShuvlarni bayon qilishgan. Bu o'rinda ana shu usullarning asosiylariga e'tiboringizni tortamiz.

1. Emotsional yondashuv. Mazkur yondashuvga ko'ra, mashg'ulotlarda o'quvchilarni qiziqtiruvchi va ularning his-hayajonini qo'zg'atuvchi usullar qo'llanilishi kerak. Bunda o'quvchilar o'quv materiallrini qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qiladi. Shuningdek, mashg'ulotlar ko'rgazmali vositalarga boy bo'lishi va ular o'quvchilarda munosabat uyg'otishi lozim. Bu borada o'quv qurollarining ham estetik talablarga javob berishi taqozo etiladi.

Texnologiya/metod	Mazmuni	Qo'llash mumkinligi
Refleksiya asosidagi o'qitish	Har bir amaliyotdan so'ng tahliliy yozuv	Amaliy mashg'ulot va seminarkarda
Portfolio yuritish	Rivojlanish jarayonini hujjatlashtirish	Raqamli platformalarda
Muammoli o'qitish	Real holatga yechim topish	Mashg'ulotlarda, seminarlarda
Mentorlik tizimi	Tajribali pedagog bilan individual ish	"Ustoz-shogird" usulida

Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish o'qituvchining pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin kompetensiyalar: umummadaniy, aksiologik, didaktik, texnologik, psixologik, kommunikativ, uslubiy, boshqaruv, refleksiv, monitoring.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida samarali omil sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, SBITT texnologiyasi ta'lim mazmunini modullashtirish orqali o'quv jarayonining tizimliliigi va izchilligini ta'minlab, talabalarda bosqichma-bosqich bilim egallash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi [8].

Reflektiv o'qitish texnologiyasi natijalari shuni ko'rsatadiki, u bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'z-o'zini baholash, dars jarayonini tahlil qilish va pedagogik qarorlarni takomillashtirish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa ularning pedagogik faoliyatda mas'uliyatni his qilishini va o'z ustida muntazam ishlashini rag'batlantiradi [7].

Portfolio texnologiyasining qo'llanilishi natijasida talabalar o'z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qila olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tajribaviy ma'lumotlarga ko'ra, portfoliodan muntazam foydalanish ijodiy-reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga, mustaqil o'qish va izlanish ko'nikmalarini ham sezilarli darajada oshirdi [9].

Xorijiy tajriba tahlillari ham yuqoridagi natijalarni tasdiqlaydi. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimida reflektiv o'qitish metodlari orqali o'qituvchilar o'z faoliyatini baholash va rivojlantirishga yo'naltirilgan [6]. Singapur va Avstraliya tajribalarida esa portfoliolar o'qituvchilarning professional rivojlanishini monitoring qilishning samarali vositasi sifatida qo'llanilmoqda [4].

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, SBITT, reflektiv o'qitish va portfolio texnologiyalari integratsiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonligi, kasbiy motivatsiyasi va reflektiv kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajak pedagogik faoliyatda zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Pedagoglarning professional yondoshuv funksional savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu o'qituvchilarning o'quvchilarga sifatli ta'lim berish qobiliyatini kuchaytiradi.

XULOSA

Jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim asosi sifatida ta'lim texnologiyalari, ya'ni muammoli ta'lim, interfaol ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, tadqiqotchilik ta'lim, modulli ta'lim va boshqa ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonida keng tatbiq etilishini qarashimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo integratsiyalash asosida takomillashtirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirish, ularda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, hozirgi holati, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirishga erishish bosh vazifalardan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta'minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar — SBITT, reflektiv o'qitish va portfolio usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy fikrlash, reflektiv tahlil va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, SBITT o'quv jarayonini bosqichma-bosqich modullashtirish va reflektiv nazoratni ta'minlash, reflektiv o'qitish texnologiyasi talabalar tomonidan o'z faoliyatini tanqidiy baholash va takomillashtirish imkonini yaratadi. Portfolio texnologiyasi esa talabaning individual yutuqlarini tizimlashtirish, o'z-o'zini baholash hamda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Xorijiy tajribalar ham ushbu texnologiyalarning dolzarbligini tasdiqlaydi. Finlandiya, Singapur va Avstraliya ta'lim tizimlarida portfoliolar va reflektiv yondashuv o'qituvchilarning professional rivojlanishini monitoring qilish va ularni zamonaviy ta'lim talablariga tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Shunday qilib, SBITT, reflektiv o'qitish va portfolio texnologiyalarining integratsiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonligi, kasbiy kompetensiyalari va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishda samarali mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 2023-yil 28-fevral
2. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022.
3. Ефремова Н. Ф. Организация оценивания компетенций студентов, приступающих к освоению основных образовательных программ вузов. Рекомендации для вузов, приступающих к переходу на компетентностное обучение студентов. М.: Исследовательский центр проблем качества Barret, H. C. (2007). Researching electronic portfolios and learner engagement: The REFLECT initiative. *Journal of Adolescent & Adult Literacy*, 50(6), 436–449. <https://doi.org/10.1598/JAAL.50.6.2>
4. Darling-Hammond, L., Burns, D., Campbell, C., Goodwin, A. L., Hammerness, K., Low, E. L., McIntyre, A., Sato, M., & Zeichner, K. (2017). *Empowered educators: How high-performing systems shape teaching quality around the world*. Jossey-Bass.
5. OECD. (2019). *OECD skills outlook 2019: Thriving in a digital world*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/df80bc12-en>

PEDAGOGIKA

6. Sahlberg, P. (2015). *Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland?* Teachers College Press.
7. Schön, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.
8. Xolmatova, N. (2020). Boshlang'ich ta'limda sistemali-blokli innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi. *O'zMU Ilmiy axborotlari*, 1(2), 112–118.
9. Yurdabakan, İ., & Erdoğan, T. (2009). The effects of portfolio assessment on reading, listening and writing skills of secondary school prep class students. *The Turkish Online Journal of Educational Technology*, 8(3), 98–107.